



WATER GEOPOLITICS IN CENTRAL ASIA: THREAT ANALYSIS

Sukhrob Buronov

associate professor, PhD

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Water geopolitics, Sea Power, Rimland, Water war, transboundary rivers, Island problem, Caspian Sea, Lake Sarez, Greater Central Asia, Koshtepa Canal, Campirabad, "water for land".

Abstract: The article discusses the geopolitical aspects of water-related issues, such as the drying up of the Aral and Caspian seas, Lake Sarez, and the Koshtepa Canal project, which is being built by the Taliban Interim Government.

Received: 11.05.23

Accepted: 13.05.23

Published: 15.05.23

MARKAZIY OSIYODA SUV GEOSIYOSATI: TAHLIKALAR TAHLILI

Suhrob Bo'ronov

dotsent, PhD

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Suv geosiyosati, Sea Power, Rimland, Suv urushi, transchegaraviy daryolar, Orol muammosi, Kaspiy dengizi, Sarez ko'li, Katta Markaziy Osiyo, Qo'shtepa kanali, Kampirobod, "yer evaziga suv".

Annotatsiya: Maqolada Orol va Kaspiy dengizining qurib borishi, Sarez ko'li hamda "Tolibon" Muvaqqat hukumati tomonidan qurilayotgan Qo'shtepa kanali loyihasi singari suv bilan bog'liq muammolarning geosiyosiy jihatlari haqida so'z boradi.

ВОДНАЯ ГЕОПОЛИТИКА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: АНАЛИЗ УГРОЗ

Сухроб Буранов

доцент, PhD

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Водная геополитика, Морская мощь, Римленд, Водная война, трансграничные реки, рассматриваются геополитические аспекты водных проблем, таких как высыхание

Островная проблема, Каспийское море, Аральского и Каспийского морей, Сарезское озеро, Большая Средняя Азия, Сарезское озеро, проект канала Коштепа, Коштепинский канал, Кампирабад, «вода за который строится временным правительством талибов».

KIRISH

Suv omili kelajak masalasidir. Yer kurrasidagi suvning 96 foizini okean va dengizlar sho‘r suvi, atigi 3 foizini chuchuk suv zaxirasi tashkil etadi. Yaqin o‘n yil ichida dunyodagi chuchuk suv zaxirasi yana ikki barobar qisqarishi mumkin. Hozir jahondagi 80 ta mamlakatda chuchuk suv tanqis, ikki milliard aholi chuchuk suv yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Geosiyosiy ahamiyati katta bo‘lgan Markaziy Osiyo aholisi tez o‘sib borayotgan va, ayni paytda, suv zaxiralari cheklangan mintaqadir. Modomiki, suv muammosi globallashib borar ekan, demak suv geosiyosati haqida so‘z yuritishga jiddiy asoslar talaygina.

ASOSIY QISM

Suv bilan bog‘liq geosiyosiy masalalar dastlab G‘arb olimlarining ilmiy izlanishlarida ilgari surilgan. Suvning geosiyosiy o‘rnini baholash uchun turli nazariyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, amerikalik admiral A.Mehen “Dengiz qudratining tarix uzra ta’siri (1660-1783)” [1] deb nomlangan kitobida dengiz qudratiga (Sea Power) ega bo‘lish jahon hukmronligining asosiy omili hisoblanadi, deb yozadi. Ta’kidlash kerakki, A.Mehenning “Sea Power” nazariyasi uzoq yillar davomida Amerika va Yevropa davlatlari geosiyosatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi va imperialistik siyosatning tarkibiy qismiga aylandi. Suv bilan bog‘liq geosiyosiy dasturlar va ta’limotlarning mualliflaridan yana biri N.Spaykmen hisoblanadi. H.Makkinder modelidan farqli ravishda N.Spaykmen geosiyosiy sxema bo‘yicha o‘z variantini taklif qiladi. Uning g‘oyasiga ko‘ra jahon hukmronligiga yo‘l Heartland emas, Rimland (qirg‘oqbo‘yi hududlar) hisoblanadi. N.Spaykmen H.Makkinder formulasiga quyidagicha o‘zgartirish kiritadi: “Kim Rimland ustidan hukmron bo‘lsa, Yevroosiyo ustidan hukmron bo‘ladi, kim Yevroosiyo boshqarsa, u dunyo taqdirini o‘z qo‘liga oladi”[2]. Bu gapni biroz o‘zgartirib, “Kimki Yevroosiyo suvini boshqarsa, dunyoni boshqaradi” deb aytish mumkin. Tabiiyki, suv hududlarini nazorat qilish bo‘yicha geosiyosiy g‘oyalar bugun ham juda dolzarb.

Bugungi kunda jahonda dengiz va okeanlarga to‘g‘ridan to‘g‘ridan chiqish imkoniyati bo‘lmagan ichki kontinental davlatlar qatoriga Markaziy Osiyo davlatlari ham kiradi. Shu sababdan ham mahalliy olimlar suv bilan bog‘liq kelib chiqishi mumkin bo‘lgan jiddiy hamda tahlikali muammolardan o‘z tadqiqotlarida ogohlantirib kelmoqda. Jumladan, A.Ergashev, D.Jumaqulning “Suv jangi yoxud geosiyosiy kurashlar” nomli maqolasi har qanday o‘quvchini mushohadaga chorlaydi. Shuningdek, H.Yunusov va Z.Mamatova hammuallifligida nashr etilgan “Transchegaraviy daryolar va yirik to‘g‘onlar: tahdidlar, talafotlar va xavfsizlik

choralari” nomli kitobda mintaqamizdagi yirik to‘g‘onlar qurilishiga doir masalalar haqida atroflicha so‘z yuritiladi.

1-rasm



Orol dengizining qurishi (1977-2020)

2-rasm



Kaspiy dengizining qurishi (2006-2022)



Qo'shtepa kanali loyihasi

AQSh Markaziy Razvedka Boshqarmasi xodimlarining 2012-yildagi ma'ruzasida ta'kidlanishicha, "Suvning noto'g'ri taqsimoti ko'plab ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Dunyo miqyosida suv havzalaridan siyosiy bosim o'tkazishda keng foydalaniladi, suvni qurol sifatida qo'llash ehtimoli ham mavjud". Rossiya Xavfsizlik kengashi kotibi Nikolay Patrushevning qayd etishicha, dunyoda ichimlik suvi ustidan urushlar boshlanib ketishi hech gap emas. Ma'lumki, Rossiya suv resurslari serob mamlakatlar sirasiga kiradi. Faqat Baykal ko'lining o'zidayoq Yer yuzidagi chuchuk suv zaxirasining 20 foizi to'plangan. Suv masalalariga ixtisoslashib, dunyoning ko'plab tillarida nashr etiladigan "Global Water Intelligence" jurnali ma'lumotiga ko'ra, suv bozorida bir yilda aylanadigan pul miqdori butun dunyo bo'yicha harbiy maqsadlar uchun sarflanayotgan mablag'ga yaqinlashib qolgan. Bu hali jarayonning boshlanishi. 2006-yili Buyuk Britaniya Mudofaa vazirligi davlat rahbariyatiga murojaat qilib, butun Yer shari bo'ylab ichimlik suvi tanqisligidan ro'y berishi mumkin bo'lgan urushga tayyor turishga chaqirgan edi. O'sha paytdagi Mudofaa vaziri Jon Reydnning fikricha, bunday muhuroba bir vaqtning o'zida dunyoning bir necha mintaqasini qamrab oladi[3].

Markaziy Osiyodagi suv bilan bog'liq vaziyat esa kutilgandan ham xavotirli. Biz Orolning fojiasi haqida mufassal so'z yuritmay, uning halokatli ko'rinishiga bir nazar solish yetarli bo'lar deb o'ylaymiz (1-rasm).

Markaziy Osiyo uchun yana bir xavf borki, u biroz e'tibordan chetda qolmoqda. Bu Kaspiy dengizining ham qurib borayotganidir. 2022-yil 8-oktyabr kuni NASA saytida Kaspiy dengizining 2006 va 2022-yilda tushirilgan fotosuratlarini e'lon qilindi (2-rasm). 16 yil farq bilan olingan fotosuratlarda Kaspiyning ancha sayoz bo'lgan shimoliy qismida, Qozog'istonning Mang'istov viloyati hududiga tutash joylarda suv ancha kamayib ketganini ko'rish mumkin.

Qozog‘istonlik ekologlar fikriga ko‘ra, Kaspiyda suvning kamayishiga iqlim o‘zgarishlaridan tashqari, unga quyilayotgan daryolar to‘silib, ularga ko‘plab gidroelektrostansiyalarning qurilishi ham sabab bo‘lmoqda. Kaspiy dengizining suvi kamaya boshlagandan buyon manfaatdor davlatlar olimlari tomonidan vaziyat kuzatib kelinmoqda. Ularning hisobotlariga ko‘ra, dengiz suvi har yili 7-10 santimetr pasaymoqda[4].

Kaspiy dengizining suvi kamayib borgani sayin uning ancha sayoz bo‘lgan shimoliy va shimoliy-sharqiy qismida juda katta hudud ochilib qoladi va cho‘lga aylanadi. Oqibatda, dengizning qurigan tubidagi qumlar nafaqat Markaziy Osiyo uchun, balki Eron va Kavkaz ekologiyasi uchun juda katta xavfga aylanadi. Arktikadan kelayotgan havo oqimlarining bir qismi Kaspiy ustidan o‘tishi va shakllanadigan shamol oqimlari asosan shimoldan janubga va g‘arbdan sharqqa esishi inobatga olinsa, dengiz o‘rnida paydo bo‘lgan cho‘ldan ko‘tarilgan qum bo‘ronlari asosan Eron va Markaziy Osiyo tomon harakatlanadi.

Markaziy Osiyoda suv geosiyosat quroliga aylanishi ehtimollarida to‘rtta geosiyosiy aktorlar va Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolari yuqori va quyi oqimi davlatlarining siyosati muhim o‘rin tutadi:

Rossiya. Markaziy Osiyoda suv muammolarining kelib chiqishida Rossiyaning o‘ziga xos “hissasi” bor. Turkiston general-gubernatori fon Kaufmanning 1872-yil 14-noyabr kuni Toshkentdan imperator Aleksandr II ga yo‘llagan “mutlaqo maxfiy” xatidan ma’lum bo‘lishicha, Orol dengizi masalasi o‘sha zamonlardayoq jiddiy muammo sifatida kun tartibiga qo‘yilgan. Jumladan, o‘sha xatda bunday yozilgan: “... biz shunday yo‘l tutmog‘imiz kerakki, Amudaryo va Sirdaryoning suvi dengizga aslo yetib bormasin. Bu daryolar suvi oxirgi tomchisiga qadar paxta dalalarini sug‘orishga sarflansin. Shu tariqa suv paxta dalalariga singib ketaversa, ko‘p o‘tmay Orol butkul quriydi. Keyin dengizni to‘ldirish uchun Sibir daryolarini burib kelamiz. Ana shundagina Turkistonning Rossiyaga qaramligini abadiy saqlab qolishimiz mumkin”[5]. Shu jihatdan, eski imperiyachilik ambitsiyalarini qo‘msayotgan Putin Rossiyasi Markaziy Osiyoda suv omilini geosiyosat quroliga aylantirmaydi, deya hech kim ayta olmaydi.

Xitoy. Xitoyning Markaziy Osiyo bilan bog‘liq geosiyosiy rejaları juda mavhum va shu sababdan ham xatarli bo‘lishi mumkin. Suv masalasida ham bu jihat o‘z aksini topadi. Tojikistonda joylashgan va 19 mln tonna suvni ushlab turgan Sarez ko‘li tabiiy to‘g‘oni Markaziy Osiyoga jiddiy xavf tug‘diradi. Eng e’tiborlisi, ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu ko‘l Xitoyga qarzlar evaziga foydalanishga “tuhfa” qilib yuborilgan. Xitoyliklarning bu ko‘ldan ilmiy tekshirish maqsadlarida foydalanishi haqidagi bayonoti esa bu mish-mishlarni tasdiqlagandek bo‘ldi. Endi mulohaza qilsak, Xitoy istiqbolda Markaziy Osiyo mintaqasiga shu ko‘l orqali geosiyosiy tahdid qilmasligiga hech kim kafolat bera olmasa kerak.

AQSh. Bu jarayonda Amerika siyosatchilari “Katta Markaziy Osiyo” loyihasini ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, Qozog‘istondan neft, Turkmanistondan gaz, Tojikiston va Qirg‘iziston suv zaxiralarini Afg‘oniston, Pokiston va Hindiston sari yo‘llash rejalashtirilgan. TAPI va CASA 1000 loyihalarini AQSh tomonidan moliyalashtirilishi uning mintaqada mustahkam o‘rnashib olishiga imkon beradi. Shu maqsadda Vashington mintaqadagi yirik to‘g‘on loyihalari yoki boshqa suv bilan bog‘liq energetika loyihalarida o‘z “hissasi”ni taklif etishi mumkin. Masalan, Amudaryo o‘zanida “Tolibon” tomonidan qurilayotgan Qo‘sh tepa kanali loyihasi Markaziy Osiyo davlatlari, ayniqsa, O‘zbekiston va Turkmaniston uchun tahlikali hisoblanadi. Uzunligi 285 km.lik loyihaning uchta bosqichidan birinchi bosqichi bir yil ichida yakuniga yetkazildi (3-rasm). O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Amudaryo o‘zanida yangi kanal qurilishi bo‘yicha qo‘shni Afg‘onistonning muvaqqat hukumati hamda jahon hamjamiyati bilan birga xalqaro me‘yorlar asosida va mintaqaning barcha davlatlari manfaatlarini inobatga olish yuzasidan amaliy muloqotlar olib borish lozim.”[6], deya bejizga ta’kidlamagan edi. Mutaxassislarining ta’kidlashicha, 5-6-yildan keyin ushbu loyiha qurib tugatilsa, Amudaryo o‘zidan quyi oqimga keladigan suv sathining hajmi 50 foizgacha kamayib ketadi[7]. “Toliblar”ning kanal qurilishini suv to‘la xandaqning o‘zidan qazib olishi, ya’ni avvaliga suv yo‘lagi uchun mo‘ljallangan beton yoki shu turdagi boshqa mahsulotlarni texnik tayyor holatga keltirmasdan qurishni davom ettirishi suvning qumlarga singib ketishiga ham olib kelishi mumkin. Masalaning geosiyosiy jihati ham borki, mazkur loyihani ortida turgan kuchlar Markaziy Osiyoda suv urushi ssenariysi haqida rejalar ishlab chiqmaganmikan, degan gipotezalarni o‘rtaga olib chiqadi.

Eron. Ma’lumotlarga ko‘ra, Ormuz bo‘g‘ozidan dunyo neft mahsulotlarining 40 foizi o‘tadi. Agarda Eron ushbu bo‘g‘ozni yopib qo‘yish orqali tahdid qiladigan bo‘lsa, jahon neft bozori ahvoli salbiy xususiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, AQShni Eron yadro qurollari yaratish ustida tadqiqot ishlari olib borayotgani uchun tashvishga solayotganga o‘xshamaydi. Neft ham bosh masala bo‘lmay, asosiy maqsad Ormuz bo‘g‘ozi suv yo‘llarini boshqarish hamda Amudaryo va Sirdaryoga yo‘l ochishga qaratilgan maqsadlar [8] pinhon emasmikan, degan mulohazalar o‘yga toldiradi.

Mutaxassislarining baholashlariga ko‘ra, 2050-yilga bormay Markaziy Osiyoda turli sabablar tufayli “suv urushi” boshlanishi mumkin. Bu esa mintaqa uchun yirik tahdid omiliga aylanishini istisno etib bo‘lmaydi. Bir yilda jon boshiga 1000m^3 (ya’ni minimal ehtiyojlarni qondirish uchun zarur) to‘g‘ri keladigan davlatlar orasida Markaziy Osiyoning Turkmaniston (206m^3) va O‘zbekiston (625m^3) kabi davlatlari bor. Jahon resurslari institutining tadqiqotlariga ko‘ra, Turkmaniston, O‘zbekiston, Moldova va Ozarbayjon suv bilan eng kam ta’minlangan dunyodagi 13 ta mamlakat qatoriga kiradi[9].

XULOSA

“Kim suvni boshqarsa, o‘sha Markaziy Osiyoni boshqaradi(mi?)”. Ushbu tezis suvni geosiyosat quroliga aylantirilishi natijasidagina sodir bo‘ladi. Taassufki, Markaziy Osiyoda suv muammolari hanz bartaraf etilmagan. Boz ustiga, daryolar yuqori oqimida joylashgan davlatlarni bu masalada quyi oqimdagi davlatlar bilan emas, aksincha “katta davlatlar” bilan maslahat olib borishi vaziyatni yanada chigallashtirmoqda. Faqatgina Markaziy Osiyo davlatlarining o‘zi tashqi aralashuvlarsiz o‘zaro kelishuv asosida buni hal etishi mumkin. Masalan, O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi uzoq yillik chegara muammolari o‘zaro imzolangan shartnoma asosida huquqiy jihatdan hal etildi. Buning o‘ziga xos bir jihati borki, u ham bo‘lsa, chegara muammolari suv bilan bog‘liq omillarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Natijada Kambirobod suv omboridan foydalanish bo‘yicha turli bahs-munozaralar vujudga kelgan edi. O‘zbek diplomatiyasi “yer evaziga suv” tamoyiliga asoslanib va biz yuqorida tahlil qilgan suv bilan bog‘liq turli istiqboldagi muammolarni oldini olishni rejalashtirgani tahsinga sazovordir. Bu preventiv diplomatiya mahsulidir. Ammo, “Tolibon” rahbarligidagi Afg‘oniston Muvaqqat hukumati tomonidan Amudaryo o‘zanida Qo‘sh tepa nomli 285 kmlik kanalning qurilishi O‘zbekistonning suv bilan bog‘liq muammolarini yanada jiddiy tus olishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan ham suv geosiyosatidagi O‘zbekiston geodiplomatiyasi muammoni oldini olishni ko‘zda tutishi, nafaqat ikki tomonlama chegara hududlarida, balki butun mintaqada suv orqali ehtimoliy geosiyosiy bosim o‘tkazishga urinishlarni oldini olishga qaratilishi hamda istiqboldagi milliy manfaatlarimizni hisobga olishi favqulodda zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mahan A.T. The influence of Sea Power upon history (1660-1783). – Boston, 1890. – P. 29-58.
2. Bo‘ronov S. O‘zbekiston geosiyosati. – T.: “EFFECT-D”, 2021. – B.12.
3. Эргашев А., Жумакул Д. Сув жанги ёхуд геосиёсий курашлар. Тафаккур журнали, 2013 йил 1-сон.
4. Каспийнинг суви камаймоқда: Дунёдаги энг йирик кўлнинг бошига ҳам Оролнинг куни тушадими? <https://kun.uz/11924565>
5. Эргашев А., Жумакул Д. Сув жанги ёхуд геосиёсий курашлар. Тафаккур журнали, 2013 йил 1-сон.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 20.12.2022. Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий сайти. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>

7. Сорокин А. Проблемы управления водными ресурсами бассейна Аральского моря, пути и способы их решения // Наука и инновационные технологии на службе Водной безопасности, 26 апреля 2022 года. <http://www.icwc-aral.uz/30years/pdf/sorokin.pdf>

8. Эргашев А., Жумакул Д. Сув жанги ёхуд геосиёсий курашлар. Тафаккур журнали, 2013 йил 1-сон.

9. Юнусов Х., Маматова З. Трансчегаравий дарёлар ва йирик тўғонлар: таҳдидлар, талофотлар ва хафсизлик чоралари. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2015.